

MAKTAB O'QUVCHILARIDA DEVIANT XULQ ATVORNING SHAKLLANISHI VA ULARNING OLDINI OLISH CHORALARI

Miraxmedova Mexrangiz Dilmurod qizi

Qo'qon davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi
1- kurs magistri mexrangizmiraxmedova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'quvchilarida deviant xulqli atvorning shakllanishi va ularning oldini olish choralari ilmiy asosda yoritib berilgan. Bolalardagi deviant xatti-harakatlarning psixologik, ijtimoiy va pedagogik sabablari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari deviant xulqli bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, ularda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: deviant xulq, profilaktika, psixologik yordam, ijtimoiy moslashuv, tarbiya, jinoyatchilik, alkogolizm, ijtimoiy befarqlik, tajovuzkorlik.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan davrda yosh avlod tarbiyasi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiy hayotga moslashuvi, ularning ma'naviy-axloqiy kamoloti va sog'lom psixologik muhitda shakllanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Afsuski, so'nggi yillarda o'quvchilar orasida turli ko'rinishdagi deviant (yoki ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan) xulq-atvor holatlarining ko'payib borayotgani ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada deviant xulq-atvorning asosiy sabablari, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, shuningdek, bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali pedagogik, psixologik va ijtimoiy chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Maktab muhitida sog'lom tarbiya va ijobiy psixologik muhitni shakllantirish orqali deviant xulq-atvorning oldini olish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi

Deviant xulq-atvor jamiyatimizdagi ijtimoiy xulq-atvor normalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning namoyon qilinishi. Deviant xatti-harakatlarning asosiy ko'rinishlari jinoyatchilik, alkogolizm va giyohvandlik va o'z joniga qasd qilish va fohishalikdir. E.Dyurkgeym jamiyat darajasida me'yoriy nazoratning zaiflashishi bilan xatti-harakatlarning og'ish ehtimoli sezilarli darajada oshadi degan fikrni ilgari surgan. Ijtimoiylashuv nazariyasi jihatidan deviant xulq-atvor, deviant xatti-harakatlarning ayrim elementlari (zo'ravonlik, axloqsizlik) rag'batlantirilgan yoki e'tiborga olinmagan sharoitlarda ijtimoiylashuvi sodir bo'lgan odamlarda shakllanishi va namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatimizda ijtimoiy borliq va har bir shaxs o'z mavjudligi va rivojlanishi o'qidan og'ishi yokida chetga chiqish mumkin. Ushbu og'ishning sababi odamlar va tashqi dunyo o'rtasidagi ijtimoiy muhit va shaxslararo munosabatlar va o'zaro ta'sirning xususiyatlarida yotadi.

Psixologik profilaktikaning yo'nalishlari, shakllari va usullarini aniqlash, shuningdek, tuzatish bilan birga reabilitatsiya ishlarini boshlash uchun biz avvalambor deviant xatti-harakatlar nimani anglatishini va bolalar va o'smirlarda bu xatti-harakatlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashimiz deviant hulq profilaktikasida muhim ahamiyatga ega. Deviant xulq-atvor murakkab va o'zaro bir biri bilan bog'liq turli omillar bilan farqlanadi. Ijtimoiy pedagogika bolalarda deviant xulq-atvorga yordam beradigan quyidagi omillarni tariflaydi:

Biologik omillar - bu bola tanasining fiziologik yoki anatomik xususiyatlaridagi turli xil buzilishlar (aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rish nuqsonlari, asab tizimining shikastlanishi, jismoniy nuqsonlar, nutq nuqsonlari va boshqalar).

Psixologik omillar psixopatologiyalar va xarakterlardagi buzilishlarga asosiy etiborimizni qaratishimiz zarur. Bu og'ishlar asab tizimining qo'zg'aluvchanligini oshiradi va o'smirlarda yomon reaksiyalarni keltirib chiqaradigan neyropsikiyatrik kasalliklar, psixopatiya, nevrasteniya va chegara holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy va psixologik omillar bolalarning jinsi, yoshi va individual xususiyatlarini e'tiborga olmaslik natijasida, ijtimoiylashuv jarayonining buzilishiga olib keladigan oila, maktab yoki xalq ta'limidagi nuqsonlarda namoyon bo'ladi. Psixologiya va sotsiologiyadagi turli maktablarining vakillari deviant xulq-atvor turlicha tariflaydilar. Zigmund Freydning psixoanalizida bunday xatti-harakatlar ongli va ongsiz o'rtasidagi ziddiyatni boshdan o'tkazayotgan shaxslar tomonidan namoyon bo'lishi - ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish zarurati va o'zini namoyon qilish istagi deb tariflagan. Sotsiologik nazariyalarga esa deviant xatti-harakatlar muvaffaqiyatsiz sotsializatsiya natijasi sifatida qaraydilar. Jamiyatda ijtimoiylasha olmagan odam deviantga aylanadi. Kattalar o'zlarining ongli munosabati va e'tiqodlariga ko'ra harakatlanadilar. O'zlarini jamiyatdan ajratib turadigan masofani yengib o'ta oladi. Lekin bolaning hayotida haqiqatga moslasha olmaslik ularni boshi berk yo'lga olib kelishi mumkin. Sotsiolog Emile Dyurkgeym deviant xulq-atvorning rivojlanishida asosiy rolni psixologik omillarga, xususan, insonda jamiyat bilan bog'liqlik hissi mavjud emasligiga bog'ladi. Buning natijasida barqarorlik tuyg'usini yo'qotadi, bu umuman shaxsiyatning rivojlanishiga ijtimoiylashishiga salbiy ta'sir qiladi.

Deviant xulq-atvorli shaxslar bilan turli xil guruhiiy va yakka tartibdagi mashg'ulotlar o' Psixoterapiya mashg'ulotlarida xulq-atvor namunalari shakllanadi va shaxs jamiyatga moslashadi. Muntazam va uzoq muddatli asosda o'tkazilishi kerak bo'lgan guruh terapiyasi mashg'ulotlari individual terapiyadan kam emas. Asab tizimining kasalliklari bo'lgan bemorlarga dori-darmonlar buyuriladi. Deviant xulq-atvorli o'quvchilar bilan ishlashning yana bir usuli ertak terapiyasi bo'lib, u bolalarga "ijobiiy" va "salbiy" kabi tushunchalarni shakllanishiga yordam beradi, bolalardagi ijodiiy salohiiyatini ko'rsatib beradi, o'z va boshqalarning harakatlarini to'g'ri munosabat bildirishga o'rgatadi. Ertaklar turli hil o'yin bilan chambarchas bog'liq. Ertak tasvirlari tasavvurni faollashtirish tiradi. Tasavvur hissiyotlar bilan birga psixik funktsiyalar: idrok, diqqat, xotira, nutq va tafakkur bilan chambarchas

bog'liq bo'lib, shu orqali butun shaxsning shakllanishiga ta'sir qiladi. Bolaning kun tartibiga amal qilishlari, to'g'ri ovqatlanishlari va jismoniy mashqlar bajarishlari kerakligini yodidasaqlashi juda muhimdir. Bolaning qanday teledasturlar va multfilmlarni tomosha qilishini kuzatib borish zarur. Bolaning atrofidagi kattalar u bilan to'g'ri va sabr toqat bilan munosabatda bo'lishlari deviant hulq atvor profilaktikasida muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tahlil va nazariy manbalarni o'rganish natijasida aniqlandiki, deviant xulq-atvor — bu ijtimoiy me'yor va qoidalarga zid bo'lgan xatti-harakatlar majmui bo'lib, uning shakllanishi ko'p omilli sabablarga ega. Ayniqsa, bolalar va o'smirlar orasida deviant xulq-atvorning yuzaga chiqishiga biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillar kompleks tarzda ta'sir ko'rsatadi. E. Dyurkgeymning ijtimoiy nazariyasi, Freydning psixoanalizi va boshqa zamonaviy yondashuvlar deviant xatti-harakatlarning mohiyatini har xil nuqtai nazardan ochib beradi. Shuningdek, o'rganilgan adabiyotlar shuni ko'rsatdiki, deviant xulq-atvor ko'pincha noto'g'ri yoki yetarli bo'lmagan ijtimoiylashuv, oiladagi muammolar, ta'lim tizimidagi zaifliklar va shaxsning individual psixik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, deviant xulq-atvor - bu ijtimoiy me'yorlardan og'ish bo'lib, u ko'p hollarda shaxsning noto'g'ri ijtimoiylashuvi, oilaviy va maktabdagi salbiy muhit, biologik yoki psixologik omillar bilan bog'liq holda shakllanadi. Bolalar va o'smirlarda deviant xatti-harakatlarning rivojlanishi ularning ichki holati va tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarining murakkabligi bilan belgilanadi. Deviant xulq-atvorni korreksiya qilishda psixoterapiya, ertak terapiyasi, guruh mashg'ulotlari, individual va guruh yondashuvlar va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash asosiy o'rin tutadi. O'qituvchi va mutaxassislarining bilim va ko'nikmalari, ota-onalarning ishtiroki bu jarayonda muhim ahamiyatga egaligini hisobga olib quyidagilarni taklif qilishimiz mumkin.

Oila va maktab hamkorligini kuchaytirish zarur. Ota-onalarga muntazam psixologik maslahatlar berish, tarbiyaviy seminar va treninglar o'tkazish orqali bolalardagi deviant xulq-atvorning oldini olish mumkin. Pedagog va psixolog kadrlar tayyorlash tizimida deviant xatti-harakatlarni erta aniqlash va ularga ta'sir ko'rsatish metodikasini chuqur o'rgatish kiritilishi zarur. Ertak terapiyasi, art-terapiya, rolli o'yinlar kabi zamonaviy psixologik texnologiyalardan foydalanish bolalarning emotsional holatini muvozanatga keltirishda samarali bo'lishi mumkin. Media va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirini cheklash va nazorat qilish tizimi kuchaytirilishi, bolalarga zararli axborot manbalaridan himoya qilish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. —Qonun himoyasida T. №1. 2001y. 23 bet.
2. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
3. Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent – Sharq, 2002.
4. B.A.Aliyev., G'.Rafiqov., T.Sultonov., M.Mullajonova., B.Rahmonov.

5. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. - T.: 2005, 120-127 b 5. <http://www.sociologu.ru>.
6. <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/psikhologiya/2020/08/22/metody-i-formy-raboty-s-detmi-deviantnogo-povedeniya>
7. <https://doct.ru/articles/deviantnoe-povedenie.html>
8. <https://atom-krkam.edusite.ru/p298aa1.html>